

## VII. TRANSPORT VA ALOQA

**Yuk tashish.** Avtomobil transportida 16,8 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,7 mln tonnaga ko‘pdir. Yuk aylanmasi 650,0 mln tn-km ga yetdi va bu o‘tgan- yilning mos davriga nisbatan 46,0 mln tn-kmga ko‘p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,1 % bo‘lib, 89,0 mln tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 13,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo‘yicha ulushi 91,1 % ni tashkil etgan.

### Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha ifodalanishi

	2025- yil yanvar- iyun	2024- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln tn.	16,8	104,7
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	16,8	104,7
Yuk aylanmasi, mln tn-km.	650,0	107,6
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	650,0	107,6

**Yo‘lovchi tashish.** 2025- yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 233,6 mln kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ga ko‘paygan.


**Yo‘lovchi aylanmasi** hajmi 5 044,0 mln yo‘lovchi-km, o‘sish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni tashkil etdi.

### Yirik korxonalar bo‘yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo‘yicha hajmli korxonalar soni 49 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar shakllandi:


**Tashilgan yuklar** hajmi 1,5 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,4 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 8,9 %);

**Yuk aylanmasi** hajmi 34,7 mln tn-km, o'sish sur'ati o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 91,4 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 5,3 %);



**Tashilgan yo'lovchilar** hajmi 3,8 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,6 %);

**Yo'lovchi aylanmasi** hajmi 179,4 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,0 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 3,6 %).



Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 107,5 % ga ko'payib, 5 044,0 mln yo'lovchi-km ni tashkil qildi.



5 044,0 mln  
yo'lovchi-km



107,5 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 96,4 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo'lovchi  
tashishda ulushi

• 96,4 %

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,3 % bo'lib, 4 056,6 mln yo'lovchi-kmni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 80,4 % ni tashkil etdi.